

Jadidchilik Harakatida Ziyoli Ayollarning Ijtimoiy Va Madaniy Faolligi

Sayfutdinova Yorqinoy Yasharbek qizi¹, Turdiyeva Shohidaxon²

Annotatsiya: Ushbu maqolamiz orqali ayol zotining insoniyat tarixidagi o'rni va ahamiyatini, uning jasorat va matonatdagi beqiyos rolini yoritamiz. Hayotning mashaqqatli sinovlari, ijtimoiy to'siqlar va shafqatsiz adolatsizliklarga qaramay, ayollar har doim sabr-toqat, qat'iyat va sadoqat bilan oldinga intilganlar. Ular oilaning, jamiyatning va umuman millatning tayanchi, ma'naviy bardoshi sifatida namoyon bo'lganlar. Mavzuda ayolning fidoyiligi, or-nomusga sadoqati, mehr-oqibat va kurashchanlik fazilatlarini tarannum etiladi.

Kalit so'zlar: ayol, jasorat, matonat, fidoyilik, sabr-toqat, mardlik, mehr-oqibat, Or-nomus, hayot sinovlari, ma'rifat, bardoshlilik, ayol qadr-qimmat, sadoqat, ma'naviyat, oilaning tayanchi, jamiyatda ayol o'rni, ayol jasorati, millat tarbiyachisi

«Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham ayollarga bog'liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lishini xohlasak, avvalo, mo' tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo'lsa, oila rozi bo'ladi, oila rozi bo'lsa, jamiyat rozi bo'ladi»

Sh. Mirziyoyev

Mamlakatimiz qizlarining yaxshi ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi prezidentimizni hamisha o'ylantiradigan masalalardan biri bo'lib, ular uchun ta'lim sharoitlarini kengaytirish bo'yicha tarixiy qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash" dasturi ishlab chiqiladi. Dastur doirasida, poytaxtimizda asosan xotin-qizlarni o'qitish uchun davlat-xususiy sherikchilik asosida to'qimachilik sohasida alohida universitet tashkil etildi. Bugungi kunda bizning ta'lim olishimiz uchun shunday keng imkoniyatlarning yaratilishi, davlatimiz tez rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga qo'shilib, xalqning ma'naviyati, madaniyatini yuksaltirish uchun har sohada yangiliklar yaratilayotgan hozirgi zaminimiz shakllanishi zamirida juda ko'p insonlarning mehnati katta. O'zbekiston 3000 yillik tarixga ega bo'lib, o'z erkiga ega bo'lguncha, 800 yilini qaramlikda, erksizlikda o'tkazgan. Vatan mustaqilligi 900-yilda Ismoil Somoniy, 1370-yil Amir Temur va 1991-yilda Islom Karimov nomi bilan bog'liqdir.

Tariximizga nazar soladigan bo'lsak, arboblarning mustaqillik uchun kurashlarida, onalari va ayollarining ham yetarlicha o'rni bor. Hadis ilmining sultoni, muhaddislar imomi – Imom al-Buxoriyning onasini ham namuna sifatida keltirishimiz mumkin. Buxoriyning onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol bo'lgan. Otasi vafot etgach, farzandlar tarbiyasi butunlay ona zimmasiga o'tadi. Onasining bergan ta'lim va tarbiyasi hamda o'zidagi intilish tufayli 5-6 yoshdan islom dinining asosiy manbalaridan biri bo'lgan hadislarni o'rganishga va yod olishga harakat boshlandi. Bunga asosiy sabab onaning bolasida ilm olishga bo'lgan ishtiyoqni yuzaga chiqarish yo'lidagi tinimsiz mehnat natijasida boladagi intilishning paydo bo'lishidir.

Ayollar maktablari (usuli jadid asosidagi) ochildi, yangi o'quv dasturlari joriy etildi. Bundan tashqari Sohibqiron Amir Temur ham harbiy yurishlarida ko'pincha ayoli Bibixonim (asl ismi Saroymulkxonim) hamkorligida olib borgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Bibixonim o'z zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor, maslahatdosh va yetuk aql-zakovat sohibasi, shuningdek, husn-latofat bobida ham benazir edi. Bibixonim insonparvar, vatanparvar, mamlakatning

¹ ADPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi 201-guruh talabasi

² Ilmiy rahbar



siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo'lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma'rifatga alohida e'tibor berar, tolibi ilmlarga homiylik qilardi. Bibixonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o'zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Bibixonimga oshkora bo'ysunmasa-da, biroq uning oqilona maslahatlariga o'zida qandaydir ehtiyoj sezib turgan. Bibixonim o'z jamg'armasi hisobidan Samarqandda ulkan qurdirgan. Bibixonim farzand ko'rmagan bo'lsada, Sohibqiron o'z nabiralari — Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Ulug'bek va boshqa mirzolari bevosita zukko Bibixonim tarbiyasiga topshirgan edi.

Jadid harakatining muhim yo'nalishlaridan biri ayollarni ilmga jalb qilish va ularning ijtimoiy mavqeini yuksaltirish edi. Bu davrga qadar ayollar asosan savodsiz, ijtimoiy hayotdan chetda bo'lgan, ammo jadidchilik bilan ular jamiyat hayotiga faol kirib kela boshladi.

Ziyoli ayollarning asosiy faoliyat yo'nalishlari

Ayollar maktablari ochildi (masalan: "Qizlar maktabi", "Ismat qizlar maktabi", "Husniya maktabi"). Ayol o'qituvchilar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Qizlarga savod o'rgatish orqali jamiyatda yangi ayol avlodi shakllana boshladi. Ayollar maqola, she'r va hikoyalar yozdi. Ba'zilar erkak taxalluslari bilan chiqishgan. "Ayollar", "Ishtirokiyun", "Sadoi Turkiston" kabi nashrlarda ayollarning jamiyatdagi o'rnini haqida bahslar bo'ldi.

Ayollar ilk bora teatrga jalb qilina boshladi, bu katta ijtimoiy siljish edi. Ayollar teatr orqali ham jamiyatga ta'sir ko'rsata boshladi (asosan tarbiyaviy mazmundagi spektakllar). Mahbuba Qosimova – qizlar maktabi tashkilotchisi, ayollar huquqlari himoyachisi. Robiya Sobir qizi – o'qituvchi, teatrdagi faol qatnashgan, ma'rifat targ'ibotchisi. Zebunniso – shoir va pedagog. Uvaysiy (Xon qizi Nodira an'analarini davom ettirgan) – bu ayollarning adabiy faoliyati orqali madaniy uyg'onishda tutgan o'rnini katta.

Azaliy tariximizdan ko'rinib turibdiki, ayollarning zehni, ularning bilimli, ilimli, madaniyatli va ma'rifatli bo'lishi jamiyatda muhim ahamiyat kasb etgan. Bunga yana bir yaqqol misol qilib, jadidchilik harakatlari doirasida ayollarning bilim olishiga qaratilgan e'tibor va jadidlar ayollarining o'sha davrdagi hayotini ko'rsatishimiz mumkin. Turkistonda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Vatanimiz tarixida muhim sahifa ochdi. O'lkani mustamlaka kishani hamda asriy qoloqlikdan ozod etish, mazlum xalq qalbiga ma'rifat ziyosi va erk tuyg'usini singdirish, jamiyatga baxt yo'lini ko'rsatish ma'rifatparvarlarning bosh maslagi edi. Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Avloniy kabi o'nlab hur fikrli taraqqiyparvarlar ana shu ezgu maqsad yo'lida fidokorona kurashdilar. Jadidlarimiz - xalq ongini yuksaltirish, ularning ma'naviyatini, madaniyatini shakllantirish, o'qimishli qilishni muhim deb hisoblashgan. Ular jamiyatdagi qoloqlikdan chiqib ketish va savodsizlik tufayli erkini yo'qotgan yurtini aynan ta'lim sohasini kuchaytirish bilan olib chiqib ketishga urinadi. Bu davrda jadidlar ham yigitlar, ham qizlar ta'lim olish jarayoniga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, jamiyatda ayaollarga hurmat-ehtirom tuyg'usini uyg'otish uchun sharaflilar harakatlar olib borar ekan, qizlarga o'g'il bolalardan kam e'tibor qaratilmasligi kerakligini bod-bod uqtirishadi.

Jadidlarimiz nafaqat bunday g'oyalarni ilgari surgan, amalda ham xalqqa o'rnak bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiy jadidchilik harakatlarining yirik namoyondalaridan biri bo'lib, ta'lim sohasida bir nechta yangi usul maktablarini ochgan. Behbudiy dastlabki ta'lim olish uchun qizi Parvinaxonni o'n yoshiga qadar Abduqodir Shakuriyning "usuli jadid" maktabiga beradi. Keyinchalik rus va fransuz tillarini o'rgatish uchun muallimlar yollaydi. Bu harakatlari bilan Behbudiy qizlarining xat-savodli bo'lishi, ko'proq til o'rganishi kerakligini uqtiradi. Jumladan, o'zbek adabiyotining namoyondalaridan biri Cho'lpon ham o'z ijodida ayollarni ulug'laydi.

Tarix saxifalarimizda hali nomi zikr etilmay, ammo yozilsa har biri kitob bo'lgulik nafosat qissalari bisyor. Qatag'on domiga tushgan har bir jadidning ahli ayoli kechinmalari, ularning sabr- matonati, misli jasorat timsolidir. Xuddi shunday jadid nomiga loyiq bo'lgan ayollardan biri, Mahfirat ona Yusupova bo'lib, u Andijon shahrida ilk bor musulmonlar sovetini tashkil etgan, 1921-yil bolsheviklar tomonidan otib tashlangan jadid Olimjon hoji Yusupovning qizishaharning eng o'qimishli,



ma'naviyati, ma'rifati yuksak, madaniyatli ayollardan bo'lgan. U o'z ijodida jadidlar ilgari surgan g'oya va tashabbuslarni xalq ongiga nafaqat ta'lim, balki, san'at vositasida ham tezroq yetkazish mumkinligini anglaganidan so'ng, ko'p hayrli ishlarga bosh bo'ladi. 1925-yil "Besh bola", so'ngra Andijon yog'-moy zavodida badiiy havaskorlar to'garagini tashkil etadi. Marifat ona maqomimartabasini yaqqol sezish uchun uning ta'lim-tarbiyasida bo'lgan ko'plab atoqli san'atkorlardan Tamaraxonim, Halima Nosirova, Gavhar Rahimovani misol qilib keltirishning o'zi kifoya.

Ayol — jasorat va matonatning tirik timsoli. U hayotning har bir sinovida bardosh va sabr bilan harakat qilgan, har damda o'z qadr-qimmatini saqlab qolgan zotdir. U og'ir zamonlarda ham oriyatini yo'qotmagan, zulm va musibat oldida ham mardlik bilan tik turgan. Hayotning achchiq va shirin tomonlarini birdek qabul qilgan ayol, oilaning ham, jamiyatning ham tayanchi va suyanchi bo'lib kelgan. Ayol mehr va muruvvat manbai, sabr va fidoyilik ramzi. Uning qalbida cheksiz mehr, ko'nglida esa umid va ishonch yog'dusi yashaydi. Har bir ayolning hayoti — chin ma'noda kurash va g'alaba tarixidir. U farzand tarbiyasida, jamiyatni obod etishda, millatni ma'naviy yuksaltirishda beqiyos rol o'ynaydi.

Jadidchilik harakati davrida ziyoli ayollarning ijtimoiy va madaniy faolligi o'zbek jamiyatida yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi. Ular ilg'or g'oyalarni targ'ib qilgan jadid ziyolilar bilan hamnafas bo'lib, millatni uyg'otish, ayollarni savodli va ma'naviy yetuk etib tarbiyalash yo'lida faol harakat qildilar. Mahbuba Qosimova, Robiya Sobir qizi, Uvaysiy, Zebunniso singari ayollar matbuot, ta'lim-tarbiya va madaniyat sohalarida jonbozlik ko'rsatib, o'z asarlari, maktab faoliyati va jamoatchilikdagi ishtiroklari orqali jamiyatda ayol mavqeining mustahkamlanishiga ulkan hissa qo'shdilar.

Mazkur faoliyat natijasida ayollar orasida savodxonlik darajasi oshdi, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki kuchaydi, ayni paytda o'zbek ayolining milliy ong va madaniy merosni asrashdagi roli chuqur namoyon bo'ldi. Ziyoli ayollar jamiyatda faqat tarbiyachi emas, balki ma'rifatparvar, yangilanish tarafdori sifatida tan olindi. Ularning mehnati tufayli ayollar masalasi jadid matbuotida dolzarb mavzuga aylandi, bu esa keyingi avlod uchun mustahkam poydevor yaratdi. Shunday qilib, jadidchilik harakatida ziyoli ayollarning faolligi faqat o'z zamonasi uchun emas, balki hozirgi davr uchun ham ibrat va ilhom manbai bo'lib qolmoqda. Ularning merosi bugungi kunda ham ayollarni ilimga, madaniyatga va jamiyat qurilishidagi faol ishtirokga undashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Shamsutdinov tarix fanlari doktori, professor. "Jadid" gazetasining 2025-yil 7-martdagi 10-sonida
2. X. Ziyoyev. O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi tarix instituti. "O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi". Toshkent – 2001.
3. Yoqubov A. O'zbek ayolining o'rni va qadri — Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
4. Shoniyoza M. Ayol va jamiyat: tarix va bugun — Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Qodirova M. Ayol — mehr va matonat timsoli — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2016.

